

TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ("DAVRBANK" XATB MISOLIDA)

Akbarov Zohidjon Sobirjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17097033>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarining kredit siyosatini takomillashtirish masalalari "Davrbank" XATB misolida o'rganilgan. Kredit siyosati bankning asosiy moliyaviy vositalaridan biri bo'lib, uning samarali yuritilishi kredit portfeli sifatini oshirish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada so'ngi yillarda "Davrbank" tomonidan amalga oshirilgan kreditlash faoliyati statistik tahlil qilinib, mavjud muammolar va risk omillari aniqlangan. Tahlillar asosida kredit siyosatini raqamlashtirish, scoring tizimlarini joriy etish va mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvlarni kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari, xususan, O'zbekiston bank sektorida kredit siyosatining zamonaviy yondashuvlar orqali takomillashtirilishiga amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tijorat banki, kredit siyosati, "Davrbank" XATB, kredit portfeli, muammoli kreditlar, kredit riski, moliyaviy barqarorlik, raqamli kreditlash, scoring tizimi, kredit strategiyasi, bank risklarini boshqarish, mijozga yo'naltirilgan yondashuv, kredit portfelini diversifikatsiya qilish.

Abstract. This article examines the issues of improving the credit policy of commercial banks using the example of Davrbank JSCB. Credit policy is one of the main financial instruments of the bank, and its effective implementation is an important factor in improving the quality of the credit portfolio, reducing the share of problem loans and ensuring the financial stability of the bank. The article statistically analyzes the lending activities of Davrbank in recent years, identifies existing problems and risk factors. Based on the analysis, proposals have been developed to digitize credit policy, introduce scoring systems and strengthen customer-oriented approaches. The results of the study, in particular, serve as a practical basis for improving credit policy in the banking sector of Uzbekistan through modern approaches.

Keywords: Commercial bank, credit policy, Davrbank JSCB, credit portfolio, problem loans, credit risk, financial stability, digital lending, scoring system, credit strategy, bank risk management, customer-oriented approach, credit portfolio diversification.

Kirish: O'zbekiston Respublikasi moliyaviy sektorini modernizatsiya qilish jarayonida tijorat banklarining kredit siyosatini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Kredit siyosati bank faoliyatining yuragi bo'lib, uning samarali yuritilishi bank resurslarining maqsadli va xavfsiz joylashtirilishini ta'minlaydi. Ayniqsa, so'nggi yillarda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi davlat siyosati banklardan ilg'or kreditlash mexanizmlarini joriy etishni talab qilmoqda. Bunda kredit risklarini baholash, portfel sifatini oshirish va mijozlar bilan ishlashda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Davrbank" XATB O'zbekistonning faol tijorat banklaridan biri sifatida kredit siyosatini takomillashtirish borasida qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Mazkur maqolada aynan ushbu bank misolida 2020–2024-yillar davrida olib borilgan kreditlash amaliyoti tahlil

qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi hamda kredit siyosatini yanada samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalar asosida kredit risklarini boshqarish, kredit portfelining diversifikatsiyasi va muammoli kreditlar ulushini kamaytirish mexanizmlari o'rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. So'nggi yillarda O'zbekiston bank sektorining kredit siyosati sohasida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonda mahalliy olimlarning nazariy qarashlari va amaliy tahlillari muhim o'rin egallaydi. Jumladan, Sardor Umarovich Kholdorov (2023–2024) o'z tadqiqotida O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini kamaytirish uchun monitoring tizimlarini takomillashtirish, risklarni baholashning zamonaviy metodologiyalarini joriy etish va davlat banklarini tijorat tamoyillariga o'tkazish zarurligini asoslab berdi. Bu yondashuv bank tizimining barqarorligi uchun uslubiy asos hosil qiladi. Shu bilan birga, Olmas Isakov (2024) tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotda muammoli kreditlarga (NPL) ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar aniqlangan. U dinamik panel ma'lumotlar asosida leverage, LDR (loan-to-deposit ratio), iqtisodiy o'sish sur'atlari va bank hajmining NPL darajasiga ta'sirini statistik tahlil qilgan. Natijalarda LDR va leverage yuqori bo'lgan banklarda muammoli kreditlar ko'paygani, iqtisodiy o'sish esa aksincha – NPL'ni kamaytirgani aniqlangan.

S. Ilhomovna (2025) esa O'zbekiston tijorat banklarining kredit siyosatini makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri orqali tahlil qiladi. U kreditlar hajmi va tuzilishidagi o'zgarishlarning yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflyatsiya va bandlikka bevosita ta'sirini nazariy va amaliy asoslarda yoritgan. I. Alimardonov (2021) esa bank kreditlash jarayonlarini soddalashtirish, hujjatlar aylanishini raqamlashtirish va qaror qabul qilish mexanizmlarini avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirish yo'llarini taklif etgan. Rossiya va Yevropa tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Jalal Hafeth Ahmad Abu-Alrop va Igor Anatolyevich Kokh (2020) Rossiya banklarida kredit riskining bank daromadliligi ko'rsatkichlariga (ROA, ROE) ta'sirini o'rganib chiqishgan.

Ular kredit hajmidan ko'ra sifat omili – ya'ni muammoli kreditlar ulushi – bank samaradorligi uchun asosiy o'zgaruvchi ekanini ilmiy asoslab berishgan. Yevropa Markaziy Banki (ECB, 2024) esa “Financial Stability Review” orqali kredit standartlari qattiqlashgani, ayniqsa ipoteka va yuridik shaxslarga ajratilayotgan kreditlar qisqargani, bu esa umumiy kredit bozorida sezilarli turg'unlik keltirib chiqarganini e'lon qilgan.

Shuningdek, Claudia Buch (ECB, 2024) boshchiligidagi guruh Rossiyaga qarshi sanksiyalar sharoitida banklar kredit siyosatini qanday moslashtirayotganini o'rgangan. Ular ECB tomonidan risklarni baholashda geopolitik sharoitlar inobatga olinayotganini va yangi nazorat mexanizmlarini ishlab chiqayotganini ko'rsatadi. Bu esa banklarning kredit portfelini yanada xavfsiz yo'nalishga burishga xizmat qiladi. Osiyo mintaqasidagi ilg'or tadqiqotlar orasida Yu Cheng, Qin Yang, Liyang Wang va boshqa Xitoylik olimlarning (2024) tadqiqotini alohida e'tirof etish lozim. Ular neyron tarmoqlar (BP Neural Network) asosida tijorat banklari uchun kredit risklarini oldindan bashorat qilish modelini ishlab chiqishgan. Bu model muammoli kreditlarni erta aniqlash va banklarni moliyaviy barqarorlik yo'liga yo'naltirishda yuqori natijalar bergan. Xuddi shuningdek, Shuochen Bi va Wenqing Bao (2024) AI texnologiyalarini real vaqt monitoringi, qarz olayotgan mijozning onlayn baholanishi va qarorlarni

avtomatlashtirishda qo'llagan. Ular AI orqali kredit risklarini real vaqtda aniqlash kredit siyosatiga yangi paradigma olib kirishini isbotlashgan.

AQSh va global tadqiqotlarda ham kredit siyosatini raqamlashtirish va AI asosida tahlil qilish yondashuvi ustuvor o'ringa chiqmoqda. Jinglun Yao, Maxime Levy-Chapira va Mamikon Margaryan (2017) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda korporativ mijozlarning hisob raqami harakatlari asosida kredit to'lovlari bo'yicha default riskini ancha aniq bashorat qilish mumkinligi isbotlangan. Tranzaksion ma'lumotlar tahlili an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlarga nisbatan ko'proq natija bergani qayd etilgan. Shu bilan birga, Dmitrii Babaev va jamoasi (2019) tomonidan ishlab chiqilgan E.T.-RNN modeli RNN (takroriy neyron tarmog'i) yordamida kredit arizalarini baholashda an'anaviy skoring tizimlaridan ancha samarali natijalar bergan.

Bu esa bankka nafaqat moliyaviy foyda, balki xavflarni kamaytirish imkonini ham taqdim etgan. Nihoyat, Basel Committee on Banking Supervision (2017) tomonidan qabul qilingan "Basel III: Finalising post-crisis reforms" hujjati butun dunyo banklari uchun kapital yetarliligi, kredit risklari, stress-testlar va likvidlik ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy global standart sifatida qabul qilindi. Bu hujjat tijorat banklarining kredit siyosatini yanada puxta rejalashtirish va standartlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining kredit siyosatini tahlil qilishda kombinatsiyalashgan yondashuv – ya'ni miqdoriy (statistik) va sifatli (analitik) metodlar birgalikda qo'llanildi. Dastlab, O'zbekiston tijorat banklarining, xususan "Davrbank" XATB'ning 2020–2024-yillardagi ochiq moliyaviy hisobotlari, kredit portfeli tarkibi, kreditlash hajmlari, muammoli kreditlar ulushi va boshqa ko'rsatkichlar yig'ildi va tasniflandi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari, risk omillari va samaradorlik darajasi baholandi.

Tahlil jarayonida deskriptiv statistika, ya'ni grafik va jadval shaklidagi taqqoslamalar bilan bir qatorda, trend tahlili, mutanosiblik koeffitsientlari va strukturaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Ayniqsa, kredit portfelining o'zgaruvchanligi, muammoli kreditlar darajasi (NPL), yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar o'rtasidagi nisbatlar har yili bo'yicha solishtirib chiqildi. Bunday yondashuv kredit siyosatidagi dinamikalarni aniqlashga yordam berdi.

Shuningdek, tadqiqotda sifatli tahlil usullari — ya'ni normativ-huquqiy hujjatlar, bank strategiyalari, Markaziy bank siyosati, hamda xorijiy ilmiy maqolalar (Harvard, ECB, IMF kabi) o'rganildi va O'zbekiston sharoitiga mos solishtirma tahlil o'tkazildi. Bu orqali "Davrbank" kredit siyosatining jahon amaliyotidagi ilg'or yondashuvlar bilan uyg'unlik darajasi baholandi. Bundan tashqari, bank tizimidagi digitalizatsiya, skoring modellar, AI texnologiyalarining kredit siyosatiga ta'siri ham e'tiborga olindi.

Empirik bazani chuqurlashtirish maqsadida "Davrbank" ATBning faol amaliyotiga oid materiallar — press-relizlar, ichki reglamentlar, yillik hisobotlar va veb-saytdagi ma'lumotlar ham o'rganildi. Shuningdek, kredit siyosatini baholashda SWOT-tahlil usulidan foydalangan holda bankning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar va tahdidlar aniqlab chiqildi.

Ushbu usullar asosida muammoli kreditlarni kamaytirish, kredit portfeli sifatini oshirish va zamonaviy kredit strategiyalarini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Banklarning kredit siyosati bugungi kunda nafaqat moliyaviy resurslarni taqsimlash vositasi, balki risklarni boshqarish, daromadlilik va likvidlikni

muvozanatlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. “Davrbank” ATB misolida olib borilgan statistik tahlil bankning so‘nggi besh yillik kredit siyosati natijalarini chuqur yoritishga yordam beradi.

1-jadval

“Davrbank” ATB kredit portfelining tarkibi (2020–2024), mlrd so‘m

Yil	Jami kreditlar	Yuridik shaxslarga kreditlar	Jismoniy shaxslarga kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL), mlrd so‘m	NPL ulushi (%)
2020	1 127,6	739,3	388,3	46,9	4,2%
2021	1 468,9	947,7	521,2	74,2	5,0%
2022	1 897,4	1 193,8	703,6	120,6	6,3%
2023	2 386,2	1 473,9	912,3	128,1	5,4%
2024	2 791,5	1 709,6	1 081,9	127,5	4,6%

Manba: <https://davrbank.uz/> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Birinchi navbatda, “Davrbank” ATB’ning umumiy kredit portfeli hajmi 2020-yildagi 1 127,6 mlrd so‘mdan 2024-yilda 2 791,5 mlrd so‘mgacha o‘shib, besh yil davomida salkam 2,5 baravarga oshgani kuzatilmoqda. Bu bankning faol kredit siyosati olib borganini, ayniqsa real sektor va chakana mijozlarga yo‘naltirilgan moliyalashtirish hajmlarining izchil ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar 2020-yilda 739,3 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1 709,6 mlrd so‘mga yetgan. Bu 131% dan ortiq o‘shish demakdir.

Ushbu tendensiya bankning yirik loyihalarni va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash siyosatini izchil davom ettirayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa 2022–2023-yillarda bu segmentda sezilarli o‘shish qayd etilgan — bu davrda iqtisodiy islohotlar bilan bog‘liq faoliyatlar ortib borgan. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ham barqaror o‘shib borgan — 2020-yildagi 388,3 mlrd so‘mdan 2024-yilda 1 081,9 mlrd so‘mga yetgan. Bu kreditlashning chakana segmentida talab oshganidan, shuningdek bank tomonidan iste‘mol kreditlari, avtokreditlar va ipoteka mahsulotlari kabi xizmatlarning faollashganidan darak beradi. Jismoniy shaxslarga kredit berish hajmi yiliga o‘rtacha 170–190 mlrd so‘mga o‘sgan.

Muammoli kreditlar (NPL) ko‘rsatkichi esa o‘zgaruvchan dinamikaga ega: 2020-yilda 46,9 mlrd so‘m bo‘lgan NPL hajmi 2022-yilda eng yuqori darajaga — 120,6 mlrd so‘mga yetgan. Bu davr pandemiyadan keyingi moliyaviy bosimlar, foiz stavkalarining nisbiy yuqoriligi yoki to‘lov qobiliyatining pasayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ammo 2023–2024-yillarda ushbu ko‘rsatkich biroz kamaygan (127,5 mlrd so‘m), bu esa bank tomonidan risklarni boshqarish, kredit scoring, monitoring va restrukturizatsiya kabi choralar ko‘rilayotganidan dalolat beradi.

NPL ulushi nisbatida ham xuddi shunday tendensiya kuzatiladi: 2020-yilda 4,2% bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 6,3% ga chiqib, 2024-yilda 4,6% gacha tushgan. Bu o‘zgarish bank tomonidan kredit siyosatini bosqichma-bosqich takomillashtirish yo‘nalishida muayyan natijalarga erishilganini ko‘rsatadi. 2020–2024-yillar oralig‘ida “Davrbank” kredit portfeli hajm jihatidan 1 127,6 mlrd so‘mdan 2 791,5 mlrd so‘mgacha yetib, deyarli 2,5 barobar o‘ydi.

Ayniqsa jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi yuqori sur'atda o'sib, 2020-yildagi 388,3 mlrd so'mdan 2024-yilga kelib 1 081,9 mlrd so'mga yetdi. Bu bankning chakana segmentga faol yo'naltirilganini ko'rsatadi.

Muammoli kreditlar eng yuqori darajaga 2022-yilda yetgan bo'lsa-da, keyingi yillarda ushbu ko'rsatkichda pasayish kuzatildi. Bunga kredit monitoringi tizimi, mijozlarni aniqlik bilan skoring qilish hamda kredit risklarni baholashning yangi modellarini joriy etish sabab bo'ldi.

Bankning strategik rejalarida kredit sifatini oshirishga doir qator aniq chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

-jadval

**Kredit siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar va ularning natijalari
(2021–2024)**

Yo'nalish	Amalga oshirilgan chora-tadbirlar	Amalga oshirilgan yil	Natijaviy ko'rsatkichlar
Kredit risklarini kamaytirish	AI asosida skoring algoritmlari ishga tushirildi	2022	Muammoli kreditlar ulushi 6,3% → 5,4% ga kamaydi
Raqamli kreditlash	Mobil ilovalar orqali mikroqarzlar ajratish yo'lga qo'yildi	2023	19 mingdan ortiq mijozlar onlayn kreditdan foydalandi
Ichki auditni kuchaytirish	Har oyda kredit sifati ko'rsatkichlari reytinglashtirildi	2021–2024	3 yilda 127,5 mlrd so'mlik kredit restrukturizatsiya qilindi
Kadrlarga yo'naltirilgan islohot	Kredit bo'yicha tahlilchi va risk mutaxassislariga malaka oshirish kurslari o'tkazildi	2021–2023	Kredit berishdagi "xato tasdiqlar" soni 27% ga kamaydi

Manba: <https://davrbank.uz/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Bank tomonidan qo'llanilgan bu chora-tadbirlar natijasida kredit ajratish jarayonlarining tezligi, aniqligi va shaffofligi sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, AI algoritmlarining joriy etilishi natijasida kredit risklari real vaqt rejimida baholanmoqda. Mobil ilovalar orqali kreditlash esa bankning chakana segmentda raqobatbardoshligini oshirdi. Ichki auditlar natijasida kredit sifatini monitoring qilish, zarur holatlarda kreditlarni qayta ko'rib chiqish mexanizmlari amalda sinovdan o'tkazildi.

Kadrlarga yo'naltirilgan strategiyalar orqali esa bank xodimlarining riskni aniqlash, baholash va qaror qabul qilish ko'nikmalari mustahkamlandi. Bu esa nafaqat muammoli kreditlarning kamayishiga, balki mijozlar ishonchining ortishiga ham xizmat qildi.

Muhokama: O'zbekiston bank tizimining so'nggi yillardagi islohoti sharoitida kredit siyosatining takomillashuvi strategik ustuvor yo'nalishga aylangan. "Davrbank" ATB misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank kredit siyosatini shakllantirishda muvozanatli yondashuvni qo'llagan: bir tomondan, kredit portfelining hajmiy o'sishiga erishilgan bo'lsa, boshqa tomondan, kredit risklarini kamaytirish orqali sifat jihatdan ijobiy siljishlar kuzatilgan.

Xususan, muammoli kreditlar ulushining 6,3% dan 4,6% gacha kamayishi ushbu siyosat natijadorligini ko'rsatadi. Biroq kredit siyosatida hali ham muayyan kamchiliklar mavjud. Eng avvalo, yuridik shaxslarga ajratilayotgan kreditlarda soha kesimidagi diversifikatsiya yetarli emas.

Real sektor, ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlariga kredit ajratish ko'rsatkichlari umumiy portfelga nisbatan past darajada qolmoqda. Bunga sabab – kafillik, garov siyosati va moliyaviy hisobotlar yetarlicha shaffof bo'lmagan holatlar bo'lishi mumkin. Shu sababli banklar kredit baholash parametrlarini yanada moslashtirilgan va moslashuvchan shakllantirishi lozim.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida "Davrbank" ijobiy natijalarga erishgan.

Onlayn kreditlash, mobil ilovalar orqali mikroqarz berish va AI asosida skoring tizimlarini ishga tushirish – kredit ajratish jarayonlarini tezlashtirib, insoniy xatoliklarni kamaytirdi. Biroq bu tizimlar hali to'liq avtomatlashtirilmagan va ba'zida texnik xatoliklar yoki noto'g'ri klassifikatsiyalar mavjud. Bundan tashqari, bank xodimlarining ushbu texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini muntazam yangilab borish zarur. Shuningdek, bankning kredit siyosatiga ta'sir etuvchi tashqi omillar – inflyatsiya, foiz stavkalari, valyuta kurslaridagi tebranishlar va tartibga soluvchi organlar siyosati ham doimiy monitoring ostida bo'lishi kerak. Bu omillar o'zgarib turgan iqtisodiy sharoitlarda bank siyosatini moslashtirishga majbur etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, "Davrbank" kredit siyosatining barqarorlik darajasi nisbatan ijobiy baholansa-da, u moslashuvchanlik va bozor sharoitlariga tez javob bera olish qobiliyatini yanada kuchaytirishi lozim.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Davrbank" ATB 2020–2024-yillar davomida kredit siyosatini miqdoriy va sifat jihatdan bosqichma-bosqich takomillashtirib borgan. Jami kredit portfeli hajmining keskin o'sishi, ayniqsa jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushining ortishi bankning chakana bozoridagi faolligini aks ettiradi. Biroq bu o'sish kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini ham zamonaviylashtirish zaruratini keltirib chiqardi.

Bank tomonidan AI asosidagi skoring tizimi, kredit monitoringi, kadrlar tayyorlash va ichki auditlar orqali muammoli kreditlar ulushi sezilarli darajada pasaytirilgani e'tiborga molik. Shu bilan birga, kredit siyosatini takomillashtirishda hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud.

Jumladan, real sektor subyektlari, xususan kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish mexanizmlarini soddalashtirish, sohalar bo'yicha kredit portfelini diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni yanada chuqur joriy etish va mijozlarga individual yondashuvlarni kuchaytirish lozim. Shu asosda "Davrbank" tajribasi nafaqat alohida bank uchun, balki O'zbekistonning butun tijorat banklari tizimi uchun samarali kredit siyosatining modelini shakllantirishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kholdorov, S.U. (2024). Credit Risks and Management Strategies of Commercial Banks in Uzbekistan. ResearchGate.
2. Isakov, O. (2024). Factors Affecting Non-Performing Loans: Empirical Evidence from Commercial Banks in Uzbekistan. Journal of Economics and Finance Analysis, 3(1), pp. 45–57.

3. Ilhomovna, S. (2025). Credit Policy of Commercial Banks in Uzbekistan and its Impact on Macroeconomic Indicators. Inlibrary.uz.
4. Alimardonov, I. (2021). Opportunities to Improve Loaning Processes of Commercial Banks of Uzbekistan. Proceedings of ACM Conference on Digital Economics, pp. 98–104.
5. Abu-Alrop, J.H.A. and Kokh, I.A. (2020). Impact of Credit Risk on the Performance of Russian Commercial Banks (2008–2017). Financial Research Letters, 32, pp. 12–26.
6. European Central Bank (ECB). (2024). Financial Stability Review: Credit Standards in Europe. ECB Publications.
7. Buch, C. (2024). ECB Supervises Geopolitical Risks in Banks after Russia Sanctions. Reuters.
8. Yu, C., Yang, Q. and Wang, L. (2024). Research on Credit Risk Early Warning Model Based on Neural Network Algorithm.
9. Bi, S. and Bao, W. (2024). Innovative Application of AI in Bank Credit Risk Management. arXiv preprint.
10. Yao, J., Levy-Chapira, M. and Margaryan, M. (2017). Checking Account Activity and Credit Default Risk of Enterprises.
11. Babaev, D., Shitikov, A. and Dyrka, V. (2019). E.T.-RNN: Applying Deep Learning to Credit Loan Applications.
12. Basel Committee on Banking Supervision. (2017). Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. Bank for International Settlements.
13. Khujakulov, B. (2022). Moliyaviy menejment va kredit siyosati. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
14. <https://davrbank.uz>
15. <https://cbu.uz>